



# O‘ZBEKISTON PREZIDENTI SHHT DOIRASIDAGI KO‘P TOMONLAMA HAMKORLIKNI YANADA KENGAYTIRISH MUHIMLIGINI QAYD ETDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarovning taklifiga binoan 31-avgust – 1-sentabr kunlari Shanxay hamkorlik tashkilotiga a‘zo davlatlar rahbarlari kengashining navbatdagi yig‘ilishi hamda “SHHT plyus” formatidagi uchrashuvda ishtirok etish uchun amaliy tashrif bilan Bishkek shahrida bo‘ldi.



Davlatimiz rahbari 1-sentabr kuni Bishkek shahrida Shanxay hamkorlik tashkilotiga a‘zo davlatlar rahbarlari kengashining yubiley yig‘ilishida ishtirok etdi.

Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov raisligida o‘tgan tadbirda Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko, Hindiston Respublikasi Bosh vaziri Narendra

Modi, Eron Islom Respublikasi Prezidenti Mas‘ud Pezeshkiyon, Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin, Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Shahboz Sharif, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon hamda SHHT bosh kotibi

Nurlan Yermekbayev va tashkilotning Mintaqaviy aksiterror tuzilmasi Ijroiya qo‘mitasi direktori Ularbek Sharsheyev ham qatnashdilar.

Kun tartibiga muvofiq, tashkilotning 25 yillik faoliyati davomida erishilgan yutuqlar, barqarorlikni mustahkamlash, hamkorlikni kengaytirish va birgalikdagi taraqqiyotni davom

ettirish borasidagi istiqbolli vazifalar muhokama qilindi. Eng dolzarb xalqaro va mintaqaviy masalalar yuzasidan ham ochiq fikr almashildi.

Majlisda delegatsiyalar rahbarlari Prezident Shavkat Mirziyoyev va O‘zbekiston xalqini Mustaqillik kuni bilan samimiy tabrikladilar. Davlatimiz rahbari tomonidan amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ichki islohotlar,

mamlakat barqarorligi, xavfsizligi va ravnaqini mustahkamlash, xalq farovonligini yuksaltirishga qaratilgan pragmatik va ochiq tashqi siyosat yuksak baholandi.

O‘zbekiston yetakchisi uchrashuv ishtirokchilarini qutlar ekan, qardosh Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti va xalqiga davlat suverenitetining 35 yilligi munosabati bilan

eng ezgu tilaklarini bildirdi. Mamlakat jadal sur‘atlarda rivojlanib, uning xalqaro maydondagi nufuzi izchil yuksalib borayotganini alohida ta’kidladi. Qirg‘izistonning Shanxay hamkorlik tashkilotiga raisligi davrida erishilgan samarali natijalarni yuqori baholab, majlis kun tartibi va qarorlar loyihalarini qo‘llab-quvvatladi.

Davomi 2-betda

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI DAVLAT RAHBARLARI KENGASHI YIG‘ILISHIDAGI NUTQI

Hurmatli Sadir Nurg‘ojoyevich!  
Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!  
Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti, hurmatli Sadir Nurg‘ojoyevich Japarovga bugungi “SHHT plyus” majlisini o‘tkazish borasidagi tashabbusi uchun samimiy minnatdorlik izhor etaman.  
Qardosh qirg‘iz xalqini davlat suverenitetining 35 yilligi bilan samimiy muborakbod etaman.  
Biz Qirg‘izistonning ishonch bilan jadal rivojlanib borayotgani va uning xalqaro maydondagi nufuzi izchil mustahkamlanayotganini ko‘rib turganimizdan mamnunmiz.  
O‘zbekiston Respublikasining Mustaqilligi kuni munosabati bilan bildirilgan ezgu tilaklar uchun barchangizga minnatdorlik izhor etaman.  
Qozog‘iston Respublikasi Qurultoyining birinchi sessiyasi ochilishi munosabati bilan

hurmatli Qosim-Jomart Kemelevich Toqayevga bildirilgan tabrikarga qo‘shilaman.  
Hurmatli majlis ishtirokchilari!  
Biz Qirg‘izistonning Shanxay hamkorlik tashkilotiga raisligi davrida erishilgan samarali natijalarni yuksak baholaymiz, bugungi majlis kun tartibi va qarorlar loyihalarini qo‘llab-quvvatlaymiz.  
Ushbu sammit SHHT tashkil etilganining 25 yilligi nishonlanayotgan yilda bo‘lib o‘tmoqda. Hamkasblarimning o‘tgan chorak asr davomida ushbu tashkilot o‘zining zarurligi va samaradorligini namoyon etdi degan fikrlariga to‘liq qo‘shilaman.  
Tashkilot “Shanxay ruhi” tamoyillariga amal qilgan holda, teng huquqli muloqotni ta’minladi, mintaqaviy barqarorlik va mamlakatlarimizning barqaror rivojlanishiga ko‘maklashdi.

O‘zbekiston SHHT tashkil etilgan dastlabki kunlardan boshlab uning ochiq, blokardan xoli va tinchliksevar hamkorlik platformasi sifatida mustahkamlanishini izchil qo‘llab-quvvatlab kelmoqda.  
Biz hamkorligimiz markazida SHHTning geografik va strategik o‘zagi bo‘lgan Markaziy Osiyo turganini alohida qadrlaymiz.  
Hurmatli hamkasblar!  
Uchrashuvimiz geosiyosiy bo‘linish, ishonch taqchilligi ortib borayotgan, mojarolar keskinlashayotgan va xalqaro huquq yemirilayotgan bir davrda o‘tmoqda.  
Yaqin Sharqdagi vaziyatning rivoji alohida tashvish uyg‘otmoqda.  
Biz mintaqada muloqotni qayta tiklash va keskinlikni yumshatishning qat’iy tarafdorimiz.  
Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

SHHT oldida turgan eng dolzarb vazifalarga to‘xtalib o‘tmoqchiman.  
Bugungi kunda nafaqat yuzaga kelayotgan muammolarni samarali hal etish, balki uzoq muddatli istiqbolda Tashkilotni qanday holda ko‘rishni istashimizni aniq tasavvur qilishimiz ham muhimdir.  
Davlatlarimizning raqobatbardoshligi ularning salohiyatlarini birlashtirish va birgalikda rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar yaratishga tayyorligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq.  
Ishonchim komilki, SHHT mamlakatlarining ulkan insoniy, tabiiy, ishlab chiqarish va intellektual resurslari, eng avvalo, xalqlarimiz farovonligini yuksaltirishga xizmat qilishi lozim.

Davomi 2-betda

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING “SHHT PLYUS” FORMATI MAJLISIDAGI NUTQI

Hurmatli Sadir Nurg‘ojoyevich!  
Hurmatli davlatlar va delegatsiyalar rahbarlari!  
Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti, hurmatli Sadir Nurg‘ojoyevich Japarovga bugungi “SHHT plyus” majlisini o‘tkazish borasidagi tashabbusi uchun samimiy minnatdorlik izhor etaman.  
Bugun biz Birlashgan Millatlar Tashkilotining adolati dunyo tartibotini shakllantirishdagi rolini muhokama qilmoqdamiz.  
Dunyoda yuz berayotgan o‘zgarishlar sharoitida davlatlar va mintaqaviy birlashmalar global institutlarga ularning universal vazifasini yanada samarali amalga oshirishda qanday ko‘mak berishi mumkinligini belgilab olish muhimdir.  
Birlashgan Millatlar Tashkiloti o‘zining markaziy, muvofiqlashtiruvchi rolini saqlab qolishi, mintaqaviy tuzilmalar esa, avvalo, mahalliy sharoitlar, ehtiyojlar va imkoniyatlarga tayangan holda umumiy tamoyillar va qarorlarning amalga oshirilishiga ko‘maklashish orqali uning sa‘y-harakatlarini to‘ldirishi lozim.

Aynan mana shunday uyg‘unlikda biz hayotbaxsh ko‘p tomonlamalikning asosini ko‘rmqdamiz.  
Yangi dunyo tartiboti nafaqat xalqaro munosabatlar tizimidagi global kuchlar nisbatini mustahkamlashi, balki mintaqaviy muammolarning adolati hal etilishiga ham xizmat qilishi lozim.  
Bunday mantiqdan kelib chiqqilganda, “SHHT plyus” formati Shanxay hamkorlik tashkilotining shunchaki kengaytirilgan majlisi doirasidan chiqib, alohida chuqur mazmun kasb etadi.  
Mazkur muloqot maydoni davlatlar, mintaqalar va tashkilotlarni umumiy kun tartibi atrofida birlashtirishga qodir.  
Bu yerda turli tashabbuslarni o‘zaro uyg‘unlashtirish va global boshqaruv arxitekturasini shakllantirish bo‘yicha muloqot olib borish zarur.  
Hurmatli majlis ishtirokchilari!  
O‘zbekiston Yevroosiyo makonida ochiq va o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish tarafdori.

Biz uchun o‘zaro bog‘liqlik — strategik mustaqillik va barqarorlik masalasidir.  
Biz shunday ko‘p qutblilik tarafdorimizki, u yangi ajratuvchi chiziqlarni yaratmaydi, balki imkoniyatlar makonini kengaytiradi, mintaqaviy loyihalar va tashabbuslar o‘zaro raqobatlashmaydi, balki bir-birini samarali to‘ldiradi.  
Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!  
Bir qator takliflarni ilgari surmoqchiman.  
Avvalo, “SHHT plyus” formatini mintaqalararo muloqot maydoni sifatida rivojlantirishni muhim deb hisoblayman.  
Barqaror o‘sish, yuqori texnologiyalarni joriy etish, iqlimga moslashish, inson kapitalini rivojlantirish, hammabop ta’lim va yoshlarni qo‘llab-quvvatlash kabi aniq yo‘nalishlarga e’tibor qaratishni taklif etaman.  
Biz tajriba almashishni yanada kengaytirish, yondashuvlarni muvofiqlashtirish va Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida yechimlarni birgalikda ilgari surishimiz zarur.

“SHHT plyus” mintaqaviy tashkilotlarning Hamkorlik tarmog‘ini yaratish uchun platforma bo‘lib xizmat qilishi mumkin.  
Asosiy vazifa — makromintaqamizda loyihalarni birgalikda amalga oshirish maqsadida ularning kotibiyatlari va ixtisoslashgan organlari o‘rtasida doimiy ishchi aloqalarni yo‘lga qo‘yishdan iborat.  
Shu bilan birga, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda mintaqaviy tashkilotlar salohiyatidan yanada faol foydalanish lozim.  
Ko‘plab davlatlar o‘xshash muammolarga duch kelmoqda. Biroq ular bo‘yicha bir mintaqada muvaffaqiyatli qo‘llanilayotgan yechimlar ko‘p hollarda boshqa mintaqalarda noma’lumligicha qolmoqda.  
Tajriba almashish mexanizmi sifatida tabiatdan foydalanish, “yashil” energetika, raqamli xizmatlar va sog‘liqni saqlash sohalarida mintaqalararo loyihalar va texnologiyalarning Ochiq bankini shakllantirishni taklif etaman.

Davomi 2-betda

## MAMLAKATIMIZ MAKTABLARI O‘QUVCHILARI VA USTOZ-MURABBIYLARIGA

Aziz farzandlarim!  
Qadrlı ustoz va murabbiylar!  
Hurmatli ota-onalar!  
Barchangizni Vatanimiz mustaqilligining 35 yillik qutlug‘ bayramiga uyg‘un va hamohang holda o‘tayotgan Bilimlar kuni bilan chin dildan samimiy muborakbod etaman.  
Ushbu quvonchli ayyomda beg‘ubor nigohlarida hayrat va hayajon uchqunlari porlab, katta orzu-intilishlar bilan maktab ostonasiga qadam qo‘yayotgan 800 ming nafarga yaqin o‘g‘il-qizlarimizga, ota-onalar va pedagoglar jamoatchiligiga o‘zimning ezgu tilaklarimni bildiraman.  
Yangi o‘quv yili mamlakatimizning butun ta’lim tizimida, maktab, litsey, texnikum va oliygohlarimiz hayotida yangi ma’rifiy yuksalish yili bo‘lsin!  
Hurmatli bayram ishtirokchilari!  
Keyingi yillarda ta’lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarimiz tufayli Yangi O‘zbekiston maktablari butunlay yangicha qiyofa kasb etib, ta’lim sifati takomillashib borayotganini barchamiz ko‘rib turibmiz.  
Ana shunday muhitda ulg‘ayib, kamolga yetayotgan, o‘qish, kasbiy ta’lim, IT, ijodiy izlanishlar, sport, jamoat azim daraxt, yorug‘ istiqbolimiz ustunlari etib tarbiyalash — muqaddas vazifamizdir.  
Hech shubhasiz, bunday ulug‘ maqsadlarga yetishda mustahkam

poydevor bo‘lib xizmat qiladigan ta’lim-tarbiya sohasini rivojlantirishga biz bundan buyon ham ustuvor ahamiyat qaratamiz. Maktab bag‘ridan katta hayotga yo‘llanma oladigan farzandlarimiz puxta bilim bilan birga, albatta, kamida bitta zamonaviy kasb-hunarni egallab chiqishi uchun barcha sharoitlarni yaratamiz. Buning uchun hududlarda “Kasblar shaharchalari”ni yaratib, zamonaviy tajriba hamda ilg‘or mutaxassislarni jalb etamiz.  
Aziz farzandlarim, sizlarga baxtli va saodatli hayot eshiklarini ochadigan kalit ham, umr yo‘llaringizda paydo bo‘ladigan murakkab savollarning yechimi, sinov va mashagqatlarni yengib o‘tishning kafolati ham faqat bilim, bilim va bilimdir. Go‘zal yoshlikning har bir daqiqasini qadrlab, yangi ilm, g‘oya va innovatsiyalarni, kasb va hunarlarni, ona tilimiz, boy tariximiz va madaniyatimiz asoslarini puxta egallang. Jahon tarixi va xorijiy tillarni ham astoydil o‘rganing. Izlanish va harakatdan hech qachon to‘xtamang.  
Ajdodlarimizdan meros bo‘lgan tabarruk zaminimizni butun qalbingiz, yuragingiz bilan seving, xalqimiz va Vatanimizga cheksiz sadoqat tuyg‘ulari bilan yashang!  
Shu yo‘lda mehribon ustozlaringiz, ota-onalaringizni eng yaqin do‘st va maslahatchi deb biling!  
Sizlarga yangi o‘quv yilini a‘lo baholar bilan boshlab, har bir o‘quv choragini muvaffaqiyatli yakunlashni, sihat-salomatlilik, omad va zafar yor bo‘lishini tilayman.  
Bilimlar bayrami barchangizga muborak bo‘lsin, aziz farzandlarim!

Shavkat MIRZIYOYEV,  
O‘zbekiston Respublikasi  
Prezidenti





Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!

# BARQAROR RIVOJLANISH – MAMLAKATIMIZNING EKOLOGIK VA STRATEGIK IMPULSI



**Abdushukur HAMZAYEV,**  
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi**  
**fraksiya rahbari**

## Mustahkam huquqiy asoslar

“Yashil” taraqqiyot, eng avvalo, zamon talablariga javob beradigan qonunchilik bazasi va uning ijrosini ta'minlaydigan ta'sirchan parlament nazorati bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun, avvalo, ekologik islohotlarning huquqiy poydevori mustahkamlandi.

Bu poydevorning cho'qqisi 2023-yilda xalqimizning bevosita ishtirokida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizdir. Bosh qonunimiz muqaddimasida davlatimiz “mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko'paytirishga, hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga” astoydil ahd qilgani mustahkamlab qo'yildi. Ijtimoiy va iqtisodiy huquqlar qatorida ilk bor “ekologik huquq” tushunchasi konstitutsiyaviy maqomda belgilandi: fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqi hamda kelgusi avlodlar manfaatlarini ta'minlash davlatning ustuvor vazifasi sifatida qayd etildi.

Faqat 2016-2025-yillar mobaynida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida 30 ga yaqin qonun qabul qilindi. Bu esa ekologik siyosatning huquqiy asoslarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tardi. Bu qonunlar nafaqat tabiiy resurslarni muhofaza qilish mexanizmlarini takomillashtirdi, balki iqlim o'zgarishiga moslashish, “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiyani keng joriy etish va biologik xilma-xillikni asrash bo'yicha davlat siyosatining yaxlit huquqiy tizimini shakllantirdi.

Bugun ekologik qonunchilikning vazifasi faqat tabiatni muhofaza qilish bilan cheklanmaydi. U investitsiya muhitini shakllantirish, resurslardan samarali foydalanish, “yashil” texnologiyalarni rag'batlantirish va aholining munosib hayot sifatini ta'minlashning muhim huquqiy omiliga aylanmoqda.

Qonunchilikni takomillashtirishda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari va milliy manfaatlarimiz o'rtasidagi uyg'unlikka alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa O'zbekistonning global ekologik kun tartibidagi faol va mas'uliyatli ishtirokini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shu o'rinda muhim savol tug'iladi: qonun qabul qilindi, ammo u haqiqatda ishlayaptimi? Zero, huquqiy demokratik davlatda qonunning qiymati uning matni bilan emas, balki amaliyotdagi to'liq va samarali ijrosi bilan o'lchanadi. Qonunning hayoti u qabul qilingan

zamonaviy, xalqaro standartlarga mos qonunlarni qabul qiluvchi oliy vakillik organi, ham ana shu qonunlar ijrosi ustidan ta'sirchan nazorat o'rnatuvchi muhim konstitutsiyaviy institutga aylandi. Ayni shu ikkisi bugun uyg'unlashib, “yashil” taraqqiyot real natijaga aylanmoqda. Buni xalqimiz “yashil” energetika,



barpo etilayotgan “yashil belbog'lar” va “yashil qalqonlar”, “Yashil makon” va yashil jamoat parklari misolida ko'rmoqda.

Ekologik islohotlar endi faqat davlat organlarining nazorati, jarima va taqiqlar bilan cheklanib qolmaydi. Insonning tabiatga munosabatini o'zgartirish, bolalikdan ekologik tarbiya berish, aholini qarorlar qabul qilish jarayonlariga jalb etish, chiqindilarni saralash va qayta ishlash madaniyatini rivojlantirish, yashil hududlarni kengaytirish kabi yo'nalishlar bir-biri bilan uzviy bog'langan tizim tusini oldi.

## Tabiatga mehr maktabdan boshlanadi

O'zbekistonda so'nggi yillarda atrof-muhitni muhofaza qilish masalasi ekologik tafakkurni to'g'ri shakllantirish va ekologik madaniyatni yuksaltirish vazifasiga aylandi. Ayniqsa, oxirgi o'n yil ichida ekologik islohotlar yangi bosqichga chiqqani fonda sohani tartibga solishdagi eng muhim qadamlardan biri 2025-yil 15-mayda O'zbekiston Prezidentining “2030-yilgacha bo'lgan davrda aholining ekologik madaniyatini

odatlar orqali shakllanadi. Bu yerda ongdagi o'zgarish juda muhim: har yili o'tqazilayotgan ko'chatlarga shunchaki daraxt emas, balki shahar ekotizimining bir qismi, havo sifatini yaxshilaydigan, haroratni yumshatadigan va inson salomatligiga ta'sir ko'rsatadigan tabiiy boylik sifatida qaralmoqda.



Ekologik madaniyatni baholash uchun ba'zan oddiy bir savolning o'zi kifoya: insonning chiqindilarga munosabati to'g'ri yo'lga qo'yilganmi? O'zbekistonda chiqindilar bilan ishlash sohasida huquqiy va institutsional islohotlar kechmoqda. Xususan, 2019-2028-yillarga mo'ljallangan qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish strategiyasi tasdiqlangan.

Konsepsiya esa bu yo'nalishni aholining kundalik odatlari bilan bog'laydi. 2025-yildan boshlab har oy “Mahallani chiqindidan xoli hududga aylantiramiz” shiori ostida aksiya va targ'ibot tadbirlarini o'tkazish belgilangan.

Shuningdek, chiqindilarni qabul qilish, saralash, qayta ishlash va ularndan energiya olish bilan shug'ullanuvchi korxonalar haqidagi ma'lumotlarni jamoatchilikka ochish choralari ham nazarda tutilgan. Demak, vazifa faqat “ko'chani iflos qilmang”, degan chiqiriq bilan cheklanmayapti. Masalaning ikkinchi tomoni chiqindini boshqarish infratuzilmasini takomillashtirish, saralash va qayta ishlash imkoniyatlarini kengaytirish, fuqaroning ekologik mas'uliyatini iqtisodiy va ijtimoiy mexanizmlar bilan uyg'unlashtirishdir.

## Muhofaza — umummilliy vazifa

O'zbekistondagi islohotlarning eng muhim istiqbollaridan biri “jazodan qo'rqib tabiatni asrash” modelidan “tabiatni asrash zarurligini anglab yashash” modeliga o'tishdir. Ekologik madaniyatni yuksaltirishda davlat qarorlari va qonunlar qanchalik muhim bo'lmasin, haqiqiy o'zgarish insonning kundalik hayotida namoyon bo'ladi.

Millionlab insonlar bir xil ekologik odatga amal qilsa, u milliy ekologik madaniyatga aylanadi. Shu ma'noda, mahalla institutining roli katta. Ekologik madaniyat, eng avvalo, insonning o'z uyi, ko'chasi, mahallasi va ish joyida ko'rinadi.

2026-yildagi ekologik tadbirlarda mahallalarda obodlikni ta'minlash, daraxtlarni noqonuniy kesishning oldini olish va chiqindilar bilan bog'liq huquqbuzarliklarni bartaraf etishga qaratilgan ishlar davom ettirilmoqda.

Mamlakatimizda ekologik siyosatning mazmuni kengayib bormoqda. Ilgarigi tasavvurda ekologiya ko'proq tabiatni muhofaza qilish, daraxt ekish yoki chiqindini tozalash bilan bog'langan bo'lsa, endi u ta'lim, shaharsozlik, iqtisodiyot, tadbirkorlik, jamoatchilik nazorati, ochiq ma'lumotlar va fuqarolik mas'uliyati bilan uyg'unlashmoqda. Eng muhimi, ekologik masala insonning ongi va turmush tarziga kirib bormoqda. Maktabdagi ekologik tarbiya, “Yashil makon” umummilliy loyihasi, chiqindilarni saralash, “yashil” texnologiyalarni rag'batlantirish, jamoatchilik ehsituvlari va ochiq ekologik ma'lumotlar — bularning barchasi bir maqsadga xizmat qiladi: tabiatni muhofaza qilishni alohida bir idoraning vazifasi emas, balki butun jamiyatning umumiy qadriyatiga aylantirish.

Bugun ekilgan bir nihol, tejalgan bir litr suv, saralangan bir kilogramm chiqindi yoki muhofaza qilingan bir tun daraxt kelajak uchun qoldirilayotgan oddiy, ammo qimmatli meros. Shuning uchun ekologik madaniyatni yuksaltirish aslida tabiat haqida emas,

insonning kelajak oldidagi mas'uliyati haqidagi masaladir.

Yangi O'zbekistondagi ekologik islohotlarning eng katta natijasi — tabiatni asrash qonun talab qiladigan majburiyatdan jamiyatning ichki ehtiyoji va milliy qadriyatiga aylanmoqda. Ana shunda barqaror taraqqiyot har bir insonning kundalik hayot tarziga ko'chadi.

## “Yashil” energiya — kelajak energiyasi

Jahon iqtisodiyoti faol tarzda “yashil” taraqqiyot tamoyillarini joriy etishga kirishmoqda. BMT Barqaror rivojlanish maqsadlarida ham o'z ifodasini topgan. O'zbekiston esa 2019-yildayoq “Yashil iqtisodiyot”ga o'tish strategiyasini qabul qildi. Ya'ni biz Markaziy Osiyo davlatlaridan birinchi bo'lib “yashil iqtisodiyot”ga o'tish yo'lini tanladik. Buning natijasi esa allaqachon mamlakat iqtisodiyotida, xalqimiz hayotida bo'y ko'rsatmoqda.

Energetika vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda quyosh va shamol elektr stansiyalari tomonidan birgina 2026-yil boshidan buyon ishlab chiqarilgan elektr energiyasi hajmi 6 milliard kilovatt-soatga yetgan. Bu o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan 24,3 foiz ko'pdir. Yaqin yillargacha mamlakatimizda “yashil” energetika ulushi nolga teng bo'lgan bir vaziyatda bu har qancha maqtanishga arziydigan ko'rsatkich emasmi?!

Mamlakatimizda qayta tiklanuvchi tabiiy resurslardan foydalanish tobora kengaymoqda. Bu yo'nalishda ham yangidan yangi imkoniyatlar eshigi ochilmoqda. Kichik va mikro GESlar orqali elektr energiyasi olish borasidagi sa'y-harakatlarning allaqachon natija ko'rsatmoqda. Bugungi kunda 64 ta loyiha ishga tushirilib, ularning jami quvvati 41,6 megavattga yetgan. Bu yo'nalishda ham rejalar ulkan.

2030-yilga qadar kichik va mikro GESlar quvvatini 204,8 megavattga yetkazish va yiliga 620 million kilovatt-soat ekologik toza elektr energiyasi ishlab chiqarish rejalashtirilgan. Bu esa 350 mingta xonadonni “yashil” energiya bilan ta'minlash, har yili 187 million kub metr tabiiy gazni tejash va atmosferaga 311 ming tonna karbonat angidrid chiqarilishining oldini olish imkonini beradi.

Bu raqamlar ortida xalqimiz farovonligi, tabiiy boyliklarimizni asrab-avaylash va kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyatimiz mujassam. Zotan, bugun qurilayotgan har bir kichik GES — ertangi kunga qo'yilgan sarmoya. Bugun tejalgan har bir tabiiy resurs — kelajak avlodga qoldirilgan boylik. Bugun ishlab chiqarilgan toza energiya — farzandlarimiz uchun musaffo muhit va farovon hayot demak.

Shu ma'noda, “yashil” energiya sohasidagi islohotlar nafaqat energetik loyiha, balki iqtisodiy barqarorlik, ekologik xavfsizlik va kelajak taraqqiyotiga xizmat qiladigan strategik ahamiyatga ega tashabbuslardir.

## Dovullar aro sobit yo'l

Bugungi dunyo og'ir va murakkab sinovlar pallasini boshdan kechirmoqda. Geosiyosiy ziddiyatlar keskinlashgan, savdo urushlari va proteksionizm avj olgan, global ta'minot zanjirlari uzilib, inflyatsiya hamda iqtisodiy depenshik ko'plab davlatlarni noaniqlik iskanjasiga solib qo'yg'an bir davrda yashayapmiz. Hatto yetakchi davlatlarning iqtisodiyoti ham o'sish sur'atini saqlab qolish uchun jon-jahd bilan kurashmoqda. Aynan shunday notinich sharoitda bir davlat dovullar aro sobit turibdi bu — yangi O'zbekiston.

Bu sobitlik tasodif emas. U yurtimizda yuritilayotgan aniq maqsadli, pragmatik va inson qadriini markazga qo'yg'an siyosatning tabiiy, qonuniy samarasidir. Tashqi dunyo qanchalik notinich bo'lmasin, ichki taraqqiyotning izchilligi ana shu siyosatning temir mantig'idir.

Ushbu haqiqatning eng yorqin isbotini biz mustaqilligimizning 35 yilligi arafasida yana bir bor ko'rdik. 25-avgust kuni mamlakatimizning barcha hududlarida bir vaqtning o'zida 163 ta yirik obyektlar ishga tushirildi.

Umumiy qiymati qariyb 50 trillion so'mlik 72 ta yirik sanoat va servis loyihasi hamda 91 ta ijtimoiy soha obyekti xalqimizga bayram tuhfasi sifatida taqdim etildi. Bu loyihalar hisobiga 15 mingta yangi ish o'rni yaratilib, byudjetiga har yili qo'shimcha 1 trillion so'm tushum tushishi ta'minlanadi.

Bu raqamlar ortida quruq statistika emas, minglab oilalarning rizql, o'n minglab insonlarning umidi, butun bir xalqning ertangi

kunga ishonchi turibdi. Tadbir aynan shu bois quruq marosimga emas, tom ma'nodagi umumxalq shodiyonasiga aylandi.

Bugungi yutuqlarning ildizini anglash uchun ortda qolgan o'n yilga nazar solish kifoya. Shu davr ichida iqtisodiyotimiz hajmi 2,5 barobardan ziyod oshdi. Tarmoqlarga 160 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb etilib, umumiy qiymati 76 milliard dollarlik 2163 ta yirik sanoat loyihasi ishga tushirildi, qariyb 6 million yurtdoshimiz doimiy ish o'rni bilan ta'minlandi. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda: “So'nggi o'n yil mamlakatimiz tarixida yangi uyg'onish davri — Uchinchi Renessans poydevorini qurish bosqichi sifatida abadiy muhrlandi”.

Eng muhimi, bu o'sishning sifati tubdan o'zgarimoqda. O'zbekiston xomashyo sotuvchi davlatdan uni chuqur qayta ishlab, tayyor mahsulotni jahon bozoriga olib chiqadigan iqtisodiyotga izchil o'tmoqda.

“Biz xomashyo eksport qilgan davlatdan uni chuqur qayta ishlash zanjiri asosida tayyor mahsulotni jahon bozoriga olib chiqadigan iqtisodiyotga o'tyapmiz. Eng muhimi, yangi korxonalar bilan birga zamonaviy texnologiyalar, yangi kasblar va yuqori malakali ish o'rnlari ham paydo bo'lmoqda”, dedi davlatimiz rahbari. Bu resursga qaramlikdan bilim va texnologiyaga tayangan iqtisodiyotga o'tishning aniq, strategik yo'nalishidir.

Quvonarlisi, taraqqiyotning tabiat bilan uyg'unligiga qaratilayotgan e'tibor. Bugungi loyihalar orasida “yashil” energetikaning salmog'i ortib bormoqda. Qoraqalpog'istonda 200 megavattli shamol elektr stansiyasi va 100 megavattli energiya saqlash tizimi ishga tushirildi, Sirdaryo viloyatida 1573 megavattli quvvat barpo etildi, Navoiydagi yangi energetika loyihalari yiliga 657 million kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqaradi. Bu iqlim o'zgarishi va resurs taqchilligi global muamмога aylangan asrda kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyatni teran anglashning amaliy ifodasi, barqaror taraqqiyot falsafasining real natijasidir.

Pragmatik siyosatning insoniylik o'lchovi ijtimoiy sohada yanada yorqin namoyon bo'ladi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, bugungi loyihalarini faqat investitsiya va eksport ko'rsatkichlari bilan o'lchash to'g'ri bo'lmaydi. Yangi o'quv yili arafasida 36 ta bog'cha, 43 ta maktab, 7 ta oliy ta'lim muassasasi va 3 ta shifoxona foydalanishga topshirildi. Yangi Toshkentda 10 gektar maydonda barpo etilgan Yangi O'zbekiston universiteti 7 ming, Qarshidagi zamonaviy universitet esa 3 ming talabani quchog'iga oladi. Garvard universiteti bilan hamkorlikda Rektorlar maktabi ib boshlandi, 1-oktabrdan Sun'y intellekt instituti faoliyat yuritadi, zamonaviy Milliy kutubxona ilm-ma'rifat maskani sifatida eshik ochdi. Farg'onadagi yangi tibbiyot muassasasi esa yiliga 60 ming bemorni davolash imkonini beradi.

Mana shu pragmatik siyosatning asl mohiyati har bir qarorni inson farovonligi va yurt obodligi mezonini bilan o'lchashdir. Davlatimiz rahbari bejiz ta'kidlamadi. “Siz kiritayotgan har bir investitsiya O'zbekiston kelajagining poydevorini mustahkamlaydi. Siz yaratayotgan har bir ish o'rni oilalar farovonligiga xizmat qiladi... Siz eksport qilayotgan har bir tovar O'zbekistonning jahon bozoridaqi raqobatbardoshligini oshiradi”. Bu so'zlarda taraqqiyotning pirovard maqsadi — inson, uning qadri va farovonligi mujassam.

Dunyo notinich, kelajak noaniq bo'lgan bir pallada bir haqiqat kundek ravshan: sobit yo'l, izchil siyosat va aniq maqsad — bular karra-karra samaraga beradi. O'zbekiston 35 yil avval qo'lga kiritgan mustaqilligini bugun yangi mazmun, yangi maralar bilan boyitmoqda. U endi faqat bayroq va chegara emas, balki har bir fuqaroning munosib hayoti, har bir xonadonning to'kin dasturxonini, har bir yoshning porloq kelajagi demakdir.

Yurt mustaqilligining har bir yili, har bir kuni bizga bir haqiqatni eslatadi: kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyat faqat yaxshi niyatlar bilan emas, aniq qonun, aniq majburiyat va uning so'zsiz ijrosi bilan ta'minlanadi. Tabiatga munosabat — jamiyatning huquqiy madaniyati ko'zgusi. Qonun ustuvor jamiyatdagina inson ham, tabiat ham munosib himoya topadi.

Dovullar aro sobit turgan bu yurt Uchinchi Renessans sari ishonch bilan odimlamozda. Bu yo'ldagi eng buyuk kuch esa Prezidentimiz va 40 million fuqusi xalqimizning yagona maqsad yo'lidagi birdamligidir. Biz xalq vakillari ham, albatta, bu yo'lda nafaqat ishonchli hamrohimiz, balki islohotlarning jadal amalga oshirilishida davlat idoralari va xalqimiz bilan hamjihatlikda amaliy ishlar qilish, qonun, qaror va farmonlar ijrosini sifatlil bajarilishida mas'ulmiz.

Iqtisodiy erkinlik indeksida O‘zbekiston 14 pog‘ona yuqorilab, 184 davlat orasida 86-o‘rinni egalladi. Respublikamiz 60,3 ball bilan birinchi marotaba “o‘rtacha erkin” davlatlar qatoriga kirdi. “Ayollar, biznes va qonun” indeksida 43 pog‘ona yuqorilab, 190 davlat orasida 48-o‘rinni egalladi.



www.yuz.uz



yuz.uznews

yuz.uz\_news



yuz.uz\_news

# YANGI O‘ZBEKISTON

## IQTISODIY FENOMENI



**Shuhrat RO‘ZINAZAROV,**  
**Konstitutsiyaviy sudning bo‘lim**  
**boshlig‘i, yuridik fanlar doktori,**  
**professor**

“Jahondagi vaziyat qanchalik murakkab bo‘lmasin, o‘tgan yarim yilda iqtisodiyotimiz 8,5 foiz o‘tdi. Nufuzli Fitch va Moody’s xalqaro reyting agentliklari mamlakatimiz suveren kredit reytingini bir pog‘ona yaxshiladi. Jahon banking investitsiya va ishbilarmonlik muhiti to‘g‘risidagi hisobotida O‘zbekiston yetakchi davlatlar qatoridan joy oldi. Bugun mamlakatda 1,2 million nafardan iborat biznes hamjamiyati shakllangani, so‘nggi besh yilda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan 84 ta qonun va 861 ta farmon hamda qaror qabul qilingani bejiz emas. Bu raqamlar davlat tadbirkorni milliy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi sifatida ko‘rayotganini yaqqol ifodalaydi. Bugun sizlar bilan muloqot qilib, bir narsaga amin bo‘ldim. Mamlakatimizda zamonaviy fikrlaydigan, o‘z biznesini kengaytirish uchun yangilikka intilayotgan yangi avlod tadbirkorlari shakllanmoqda. Bu esa yurtimizning ertangi kuni va taraqqiyoti uchun juda katta kuch va ishonchdir. Hech qachon oldinga intilishdan, o‘shishdan, rivojlanishdan, yangilik qilishdan to‘xtamang! Sizlarning o‘ringizda doimo qo‘llab-quvvatlaydigan kuchli davlat, huquq va manfaatizni himoya qiladigan qonun, tashabbus va maqsadlaringizni ro‘yobga chiqarishda yelkadosh bo‘lgan Prezident bor”, deya davlatimiz rahbari yaqinda bo‘lib o‘tgan tadbirkorlar bilan ochiq muloqotda ta’kidlagan edi.

Mustaqilligimizning shonli va sharaflari 35 yillik tarixi, avvalo, milliy davlatchilikni mustahkamlash, inson qadrini yuksaltirish, iqtisodiy salohiyatni oshirish va xalq farovonligini ta’minlash yo‘lidagi ulkan maqsadlarni ro‘yobga chiqarish davridir. Bunday maqsadlar ilm-fan tadbirkor-championlar uyg‘unligini mustarak ifodalaydigan, Prezidentimiz tomonidan kashf etilgan, ilm-fan yutuqlariga asoslangan ta’limli izchil ijtimoiy davlatni barpo etishga yo‘lmarkitilgan Uchinchi Uyg‘onishning yangi taraqqiyot modelidir. Turli tillardagi lug‘aviy va etimologik tahlil nuqtayi nazaridan yondashilganda “champion” so‘zi o‘zbek tiliga xalqaro atamashunoslikdan kirib kelgan bo‘lsa-da, o‘zbek mumtoz va xalq tilida uning muqobil “alp”, “pahlavon” yoki “sarkor” (boshqaruvchi, yetakchi) tushunchalariga to‘g‘ri keladi. Tadbirkorni “champion” deiyish iqtisodiy maydonda yengilmas, o‘z sohasida dovruq qozongan va boshqalarni ortidan ergashitiruvchi “iqtisodiy pahlavon”ni anglatadi. “Champion” so‘zi kelib chiqishiga ko‘ra lotincha “sampus” (maydon, kurash maydoni) va keyinchalik o‘rta asrlar fransuz tilidagi “sampion” (jangchi, o‘z



O‘zbekiston taraqqiyoti va istiqbolini ta’minlaydigan kuch — tadbirkorlar. Bu yondashuv tadbirkorlikka faqat iqtisodiy faoliyat turi sifatida emas, balki mamlakat

taraqqiyotining muhim harakatlantiruvchi kuchi sifatida qaralayotganini anglatadi.

2026-yil 5-avgust kuni xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo‘yicha respublika kengashining navbatdagi yig‘ilishida ta’kidlanganidek, mamlakatimizdagi islohotlar natijasida joriy yilning o‘tgan davrida qator xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekistonning



o‘rni yaxshilangan. Jumladan, Iqtisodiy erkinlik indeksida O‘zbekiston 14 pog‘ona yuqorilab, 184 davlat orasida 86-o‘rinni egalladi. Respublikamiz 60,3 ball bilan birinchi marotaba “o‘rtacha erkin” davlatlar qatoriga kirdi. “Ayollar, biznes va qonun” indeksida 43 pog‘ona yuqorilab, 190 davlat orasida 48-o‘rinni egalladi. O‘zbekiston gender tenglik sohasida muhim huquqiy islohotlarni amalga oshirgan

Davlatimiz rahbarining Xivadagi muloqoti tasodifiy voqea emas. U besh yillik ochiq muloqotlar davomida shakllangan davlat — tadbirkor sheriklik munosabatlarning yangi sifat bosqichini va kamdan kam davlatlarda kuzatiladigan islohotchi ijtimoiy davlat fenomenini ifodalaydi. Muloqotda so‘zlangan nutq xalqaro miqyosda ham qizg‘in e’tirofga va

aylanishi eng katta qiymatdir” degan konseptual g‘oyasi shunchaki iqtisodiy shior emas. Bu — xalqaro va xorijiy amaliyot sinovidan o‘tgan yangi O‘zbekistonning transformatsiyalashayotgan iqtisodiy modelining falsafiy, huquqiy va strategik poydevoridir. Darhaqiqat, strategik nutqdagi “kichikdan — o‘rta biznesga, o‘rtadan — “champion”ga aylanishi” g‘oyasi, nazarimizda, oddiy rag‘batlantirish shiori emas. Davlatimiz rahbari taklif qilayotgan “biznes start”, “biznes lift” va “biznes yuksalish” dasturlarining iqtisodiy-huquqiy ahamiyati ham aynan shunda. “Biznes start” tadbirkorlikka kirish huquqini amaliy ta’minlashga yo‘naltirilgan. “Biznes lift” ishlash turgan biznesning o‘shish imkoniyatlarini kengaytirishga yo‘l ochib beradi. Yangi o‘shish bosqichiga o‘tgan tadbirkorlar uchun “biznes yuksalish” esa kapital, tashqi bozor va investitsiyaviy munosabatlarga kirishni ta’minlashga qaratilgan. Ayni shu ma’noda, tashabbuskor va tavakkalchilikka asoslangan tadbirkorlikni amalga oshirish huquqi va uning chegarasi endi faqat “biznesni qanday boshlash mumkin?” degan savol bilan cheklanmasligi kerak. U “biznes qanday qilib barqaror, raqobatbardosh va global kompaniyaga aylanadi?” degan savolga ham ilmiy-amaliy javob berishi lozim.

### “Sukut — rozilik” formulasi

muhokama mavzusiga, biznes hamjamiyatining katta qiziqishiga sabab bo‘layotgani bejiz emas.

Zero, xalqimizda “Mehnat qilgan — elda aziz”, “Hunarli kishi xor bo‘lmas” kabi purma’no hikmatlar bor. Bugun bu hayotiy haqiqat xalqaro huquqning umume’tirof etilgan norma va prinsiplariga hamda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning asl insonparvarlik mohiyatiga hamohangdir. Ayniqsa, mehnat qilish huquqi, xususiy mulk daxlsizligi, tadbirkorlik faoliyati erkinligi kabilar jamiyat taraqqiyotining konstitutsiyaviy qadriyatidir.

“Mo‘jizaviy taraqqiyot” deganda juda qisqa tarixiy davrda mamlakatning iqtisodiyoti, texnologiyasi, inson kapitali va ijtimoiy institutlari keskin yuksalib, taraqqiyot trayektoriyasi odatiy tadrjiiy o‘shishdan sezilarli darajada farq qilishi tushuniladi. Masalan, Yaponiya mo‘jizasi, Janubiy Koreyaning Xangan mo‘jizasi, Singapur mo‘jizasi, Xitoyning iqtisodiy yuksalishi kabilar buning yaqqol misolidir. Agar bu tushunchani “tadbirkor champion bo‘lsa, mamlakat ham champion bo‘ladi” tezisiga nazariy asos qilib olsak, bu ham ta’sirchan chuqur ilmiy metodologiyaga asoslangan degan xulosaga kelish mumkin. Buni tom ma’noda, yangi O‘zbekistonning champion tadbirkor modelidagi taraqqiyot konsepsiyasi deb tavsiflasak bo‘ladi.

### “Biznes start”dan “biznes champion”gacha

Prezidentimizning “Tadbirkorning kichikdan — o‘rta biznesga, o‘rtadan — “champion”ga

va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo‘lishi kerak. Inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlari yuzaga keldigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi degan insonparvarlik normasiga tayaniladi. Bu inson qadri oliy qadriyat bo‘lgan ijtimoiy, huquqiy davlatning muhim belgisidir. Taklif qilinayotgan “birinchi xato uchun — ogohlantirish” qoidasi ham jazolovchi emas, preventiv (oldini olishga qaratilgan, ya’ni biror salbiy oqibat yoki huquqbuzarlik yuz berishidan avval uning oldini olish maqsadida ko‘riladigan chora yoki tadbir) huquq mohiyatiga asoslanadi. Tadbirkorga kamchilikni tuzatish imkoniyatini berish qonunbuzarlikni oqlash emas, aksincha, davlatning huquqiy ta’sir chorasini maqsadga muvofiq va mutanosib qo‘lshidir. Biznesga nisbatan har bir tekshiruv iqtisodiy qiymatga ega. Tekshiruv tadbirkorning vaqti, mablag‘i va boshqaruv resursini talab qiladi. Shu bois, davlat nazoratining qonuniyligi bilan bir qatorda zarurligi, mutanosibliigi va takrorlanmasligi ham inson qadrlarining konstitutsiyaviy va fuqarolik huquqiy mezoniga aylanishi kerak.

Kichik biznesga nisbatan ayrim tekshiruvlarga moratoriy qo‘yish, takroriy tekshiruvlarni biznes-ombudsman nazoratiga olish, sudda tadbirkor foydasiga qaror chiqarish ishlarni assosiz ravishda yuqori bosqichlarga olib chiqishni cheklash kabi takliflar shu huquqiy mantiqdan kelib chiqadi.

### Ilm-fan, raqamli texnologiyalar va tadbirkorlik

Mamlakatimizdagi ortga qaytmas islohotlar mohiyatidan kelib chiqib, yangi ustuvor xalqaro reytinglar bilan ishlash raqamli taraqqiyotni jadallashtirishda muhim o‘rin tutadi. Xususan, sun’iy intellekt sohasini keng rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni kuchli joriy etish hamda xalqaro tavsiyalar asosida mamlakatimizning ushbu yo‘nalishdagi pozitsiyasini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada “Oxford Insights” xalqaro tashkilotining Hukumatning sun’iy intellektga tayyorgarlik indeksi yuritila boshlagan (2020-yil)dan buyon ko‘rsatkichlar 33 pog‘ona yaxshilandi va O‘zbekiston MDHda eng yuqori natijaga erishgan mamlakatlarga aylandi.

Davlatimiz rahbarining nutqidagi yana bir muhim jihat shundaki, sun’iy intellektga berilgan e’tiborni faqat texnologik yangilik sifatida baholash kamlik qiladi. U tadbirkorlik munosabatlarning subyekti emas, balki yangi raqamli huquqiy muhitni shakllantiruvchi ko‘makchiga aylanmoqda.

“Virtual soliq maslahatchisi”, sun’iy intellekt yordamchilari, korxonalar uchun sun’iy intellekt hamkor, superkompyuter imkoniyatlaridan foydalanish, ilmiy tadqiqot xarajatlarini qoplash kabi tashabbuslar tadbirkorlikni raqamlashtirishning amaliy ko‘rinishidir. Ammo raqamli tadbirkorlikning, jumladan, tadbirkor inson va sun’iy intellekt o‘rtasidagi chegarani aqlii tartibga solish nuqtayi nazaridan milliy qonunchilikni shakllantirish, tizimlashtirish va birxillashtirish bilan bog‘liq masalalar o‘z yechimini topishi lozim.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 53-moddasida har kimning ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyati yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g‘amxo‘rlik qiladi. Bu norma raqamli tadbirkorlik uchun konstitutsiyaviy zamin yaratadi. Uchinchi Uyg‘onishning iqtisodiy championi shuning uchun faqat birona yoki kompleks ishlash chiqarish binosini qurgan emas, balki zamonaviy sharoitda ilmiy g‘oyani raqamli texnologiyaga, texnologiyani raqamli mahsulotga, mahsulotni milliy brendga, brendni global raqobat ustunligiga aylantira oladigan tadbirkordir.

Real va raqamli bozorlarda intellektual mulkni himoya qilmaydigan ishbilarmon milliy brend yaratma olmaydi. Ekspert bozorida qoidalar va texnik reglamentlarni bilmaydigan ishlash chiqaruvchi sifati mahsulot qiqarsa ham bozorga kira olmasligi mumkin. Shu bois, raqamli tadbirkorlik ta’limining yangi mazmunini belgilash vaqti keldi.



## Hududlar hayoti

**Bag‘dod tumanidagi Mirzaobod qishlog‘i aholisi kaftdek yerdan ham unumli foydalanadi. Ular asosan qalampir ekadi. Mahallada mahsulotni quritish, qadoqlash tarmoqlari faoliyatini yo‘lga qo‘ygan tashabbuskorlar ko‘p.**

Erta ko‘klamda yerga qadalgan urug‘ kech kuzga qadar hosil beradi. Muhimi, qalampir qo‘shilgan qiymati janjiri yaratuvchi eksportbor mahsulotlar qatoridan joy oldi. Shu qishloqda tug‘ilib kamolga yetgan Abduraziq Hamidov qalampir yetishtirish, quritish, qayta ishlash yo‘nalishida tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘ygan mirishkorlardan. Uning sa’y-harakati bilan qurilgan korxonada o‘ndan ortiq doimiy ish o‘rni ochilgan. Tadbirkor tomorqachi va fermer xo‘jaliklari bilan mahsulot ekish, yetishtirish, sotib olish va qayta ishlash yo‘nalishida mustahkam hamkorlik o‘rnatgan. Ayni kunda har oyda 20 tonnadan ortiq mahsulot qayta ishlanib, peshma-pesh iste’molga chiqarilayapti.

— Ilgari ham qalampir ekardik. Ammo mahsulotni erkin sotish uchun bozor ham, raqobat ham yo‘q edi, — deydi yakka tartibdagi tadbirkor Abduraziq Hamidov. — Tayyor mahsulotni qadoqlarga solib, haftalab bozorlarda qolib ketardik. Sifatini yo‘qotgan mahsulotning bozori kasod bo‘lardi. Endi bu boradagi ish yuritish tizimi o‘zgardi. Dehqonchilik bilim, ko‘nikma va izlanishlar mahsuli ekanini anglab yetdik.

Qalampirni qayta ishlash tarmog‘ida ish qizg‘in. Maxsus uskunalarda maydalangan mahsulot qadoqlanib, ichki va tashqi bozorlarda sotilmoqda. Bugun Mirzaobodning qalampirilarini Rossiya, Turkiya, Gruziyadan ham topish mumkin. Shu kunlarda tayyor mahsulotning bir kilosi ikki dollardan sotilmoqda. Bu o‘rta hisobda yiliga 300 tonna mahsulot va 600 ming dollarlik eksport degani. Bu yerda talabga ko‘ra, maydalangan qalampirning “achchiq”, “juda achchiq”, “shirin”, “xushbo‘y”, “ziravorli” kabi o‘nlab turi tayyorlanadi.

— Tomorqamizga qalampir ekib kam bo‘layotganimiz yo‘q, — deydi mirishkor dehqon Odiljon Po‘latov. — Muhimi, mahsulotning xaridori bor. Erta ko‘klamda serhosil ko‘chat yetkazib berish, kerakli mablag‘, texnikalar bilan ta’minlash ham yo‘lga qo‘yilgan. Mehnatdan kelayotgan daromad salmog‘i yaxshi. Bu yilgi mavsumda 25 sotixga “Qo‘qon qalampir” navidan ekdik. Hosil cho‘g‘i baland. Ayni kunda qizib pishganlarini terib ola boshladik. Mahsulotning bir kilosi ho‘l holatda ulgurji narxda 25-30 ming so‘mdan sotilayapti. Mavsum davomida o‘rta hisobda

3 tonnadan ortiq ho‘l qalampir yetishtiramiz. Bu qariyb 70 million so‘m daromad degani. Mahsulotimizni quritib sotsak, narxi bir necha barobar ortadi. Mahalla faollari deb, “Nima kaming bor, pul, iltis kerakmi?” deb so‘rab turibdi. Bizga ham mablag‘ berishmoqchi, uning hisobidan tomorqamizda issiqxona qurishni maqsad qilganimiz. Issiqxona ko‘chat tayyorlash, mahsulotni ertachi chiqarishda zarur. Farovon, to‘kin yashash, avvalo, insonning o‘ziga bog‘liq. Uyo-joy, farzandlar ta’lim-tarbiyasi, avtomashina, to‘kin dasturxon mehnat va izlanishlarimiz, yaratib berilgan imtiyoz va imkoniyatlar samarasi, deb o‘ylayman. Bitta oilaga bundan ortiq yana nima kerak?!

Tayyor mahsulot mahalladagi o‘nlab oilalarga tarqatib beriladi. Ular muayyan haq evaziga qalampirni saralab, bandidan ajratadi. Mahalla raisi hamrohligida qalampirni saralash ishlari bilan andamon bo‘layotgan xonadonlardan birida bo‘ldik.

— Haftada 500 kilodan bir tonnagacha qalampir saralab beramiz, — deydi xonadon bekasi Sayramxon Rahimova. — Tayyor mahsulotning har kilosi uchun 1000-1500 so‘mdan pul olamiz. Ish og‘ir emas, ozgina vaqt, e’tibor talab qiladi. Muhimi, uy yumushlari, farzand tarbiyasidan ajralmagan holda qo‘shimcha daromad olish, ro‘zg‘orning kam-ko‘stini to‘ldirish imkoniyatiga egamiz. Tomorqamizga ekilgan



mahsulotni ham kelishilgan narxlarda sotib, daromad topamiz.

Qalampir yetishtirish, qayta ishlash mahallaning o‘ziga xos drayveriga aylanmoqda. Tadbirkorlarning ham rejası bisyor — ishlash chiqarishni Yevropa standartlariga moslashtirish, brend yaratib, eksport geografiasini yanada kengaytirish, qalampirchilik klasterini barpo qilish, shu orqali ko‘proq oilani daromadli

qilish. Bu yo‘nalishda dastlabki loyihalar quloch yoymoqda. “Konizar — Matqulobod” kooperatsiyasi tashabbusi bilan “Bir dala — bir mahsulot” tamoyili asosida 60 sotix yerdagi “Chili” navli qalampir yetishtirilayapti. Bundan tashqari, qo‘shni tumandagi tomorqachilar bilan serhosil ko‘chatlar yetkazib berish, tayyor mahsulotni erkin bozor narxlarida sotib olish tizimi joriy qilingan.

— Mahallamizdagi olti yuzdan ortiq xonadonning asosiy tirikchiligi qalampirchilikdan, — deydi “Mirzaobod” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi Shavkat Qosimov. — Bugun mahsulotni qayta ishlash bilan shug‘ullanayotgan 2 ta yirik tadbirkorlik subyekti bor. Ular mahallamiz aholisining asosiy qismini ish, qo‘shimcha daromad bilan ta’minlayapti. Bundan tashqari, 50 dan ortiq ishsiz va migratsiyadan qaytgan yoshlar, xotin-qizlar uchun ajratib berilgan 31 gektar maydonda ham “Bir dala — bir mahsulot” tamoyili asosida qalampir yetishtirish yo‘lga qo‘yildi. Bir gektar maydondan o‘rta hisobda 20 tonna ho‘l qalampir terib olinadi. Kutilayotgan xirmon salmog‘iga yarasha daromad ham yaxshi.

Mahallalar dehqonchilik va tadbirkorlikning o‘ziga xos yo‘nalishlariga ixtisoslashib bormoqda. Natijada sohalar rivojlanib, oddiy qalampir ham serdaromad mahsulotga aylandi. Ma’lumotlarga ko‘ra, joriy yil yanvar-iyun oylarida xorijiy mamlakatlarga 1300 tonna qalampir eksport qilingan. Bu o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2000 tonna ko‘p. Shu faktning o‘ziyoq mahallalardagi ixtisoslashuvning samaradorligini ko‘rsatadi.

**Rasuljon KAMOLOV,**  
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**



YANGI O'ZBEKISTON



Ta'lim odimlari

O'quv yili boshlanishi istiqloq ayyomi bilan birga kechishida o'ziga xos ramziylik bordek tuyuladi doim. Shu ma'noda, bugun mustaqilligimizning 35 yilligi haqida so'z yuritar ekanmiz, eng avvalo, bu yillarda shakllangan yangi avlod, ularni tarbiyalayotgan ustozlar va shu ustozlarni tayyorlayotgan ta'lim tizimi haqida ham o'ylashimiz mutlaqo tabiiy, albatta. Zero, millat kelajagi, birinchi galda, ta'lim-tarbiya sifatiga bog'liq ekani yaxshi ayon. Keyingi yillarda o'qituvchi shaxsiga munosabat o'zgarishi, mehnati qadr topib, kasbiy o'sishi uchun keng imkoniyatlar yaratilayotgani esa, shubhasiz, eng muhim ijtimoiy o'zgarishlardan biridir.



# YUTUQLAR YAKUN EMAS,

## KELGUSI IZLANISHLAR UCHUN BOSHLANG'ICH NUQTA



**Azizbek HASANOV,**  
Termiz davlat pedagogika  
instituti rektori,  
pedagogika fanlari doktori,  
professor

Shiddatli davr ustozlardan faqat dars berishni emas, izlanish, yangilik yaratish, xorijiy tillarni o'rganish, zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish va kasbiy mahoratini muntazam oshirishni talab etmoqda. Eng muhimi, bu talablarni bajarish uchun barcha sharoitlar muhayyo. Mavjud imkoniyatlarning eng qimmatli samarasi esa o'z fikriga, maqsadiga va yuksak salohiyatga ega avlod shakllanayotganidir.

Mazkur jarayonda oliy ta'lim, ayniqsa, pedagogik ta'lim muassasalarining o'rni alohida. Negaki pedagogikaga ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalarining asosiy vazifasi millat bolalarining fundamental bilimlarni egallashida bosh rolni bajaruvchi maktab o'qituvchilarini tayyorlashdan iborat. Demak, ularning faoliyati butun mamlakat ta'lim darajasi, sifatida ham o'z aksini topadi.

Aynan shu tamoyil asosida umumta'lim maktablari va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida Termiz davlat pedagogika institutining 20 ta kafedra filiallari tashkil etilgan. Bu oliy ta'limni maktabdan uzoqlashtirmaslik, bo'lajak pedagogni real ta'lim muhiti bilan bog'lash, professor-o'qituvchi ilmiy izlanishini amaliyotdagi muammolar bilan uyg'unlashtirish imkoniyatidir. Endilikda bo'lajak pedagog maktabdagi haqiqiy dars jarayonini, o'quvchi bilan ishlashni, pedagogik muammolarni amaliy muhitda ko'rmoqda. Professor-o'qituvchi esa ilmiy izlanishlarini real ta'lim ehtiyojlari bilan bog'lay oladi.

Bugungi pedagogni raqamli texnologiyalaris tasavvur etib bo'lmaydi. Shu sababli institutda ta'lim jarayonini raqamlashtirishga tizimli yondashilmoqda. Jumladan, 25 ta bakalavriat yo'nalishidagi 622 ta fan bo'yicha elektron o'quv kontentlari bazasi shakllantirilgan. Magistraturaning 22 ta mutaxassisligi bo'yicha 95 ta fan kesimida o'quv-uslubiy materiallar elektron shaklda tayyorlangan. Talabaning mustaqil ta'limini nazorat qiluvchi mustaqil.terdpi.uz, professor-o'qituvchi yuklamasini boshqaruvchi yuklama.terdpi.uz hamda ta'lim jarayonini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beruvchi monitoring.terdpi.uz kabi platformalar joriy etilishi ta'lim boshqaruvida raqamli yondashuv kuchayib borayotganidan darak.

42 ming adabiyot va 48 ta kompyuter bilan ta'minlangan, kunlik 560 talaba qamroviga ega axborot-resurs markazi ta'lim sifatini oshirishda qo'l kelyapti. Bunday tizimning eng muhim jihati talaba bilim olish jarayonining passiv ishtirokchisidan mustaqil izlanadigan subyektaga aylanishida, deyish mumkin. Bu esa ertangi maktab o'qituvchisi uchun g'oyat muhim sifatidir.

Albatta, zamonaviy pedagogni tayyorlash uchun xuddi shunday ilmiy muhit zarur. Institutimizda yuksak ilmiy-pedagogik mahorat, zamonaviy innovatsion tafakkur va yangicha dunyoqarashga ega professor-o'qituvchilar faoliyat yuritib, yangi avlodni zamon talablari asosida tarbiyalash va ularni ilmiy-ijodiy salohiyatni shakllantirishga munosib hissa qo'shayotir. Bu yerda ilmiy salohiyat so'nggi uch yilda 17 foizdan 38,1 foizga oshdi. Fan doktorlari soni 2 nafardan 11 nafarga, PhD darajasiga ega mutaxassislar soni esa 10 nafardan 104 nafarga yetdi.

2025-yilda Scopus bazasida institutimiz sahifasi o'chilgan bo'lib, bugunga qadar professor-o'qituvchilarning tomonidan Scopus va Web of Science bazalarida 116 ta maqola chop etildi. Oliyogha so'nggi yillar davomida xalqaro va respublika miqyosidagi 42 ta anjuman tashkil etilgani esa ilmiy salohiyat bilan uyg'un ravishda hamkorlik muhiti tobora yaxshilaniy borayotganidan dalolat.

Bu yerda pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi ilmiy kengash

qatnashmoqda. Talabalarining ham mazkur dastur va loyihalardagi ishtiroki ularning kasbiy, ilmiy va shaxsiy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Institutda xalqaro hamkorlikka alohida e'tibor qaratilyapti. Erasmus+, PRESETT-Accelerating English Language Learning in Central Asia, SES kabi dasturlar doirasida hamkorlik yo'lga qo'yilgan, xorijiy oliy ta'lim muassasalaridan 41 nafar professor-o'qituvchilar o'quv jarayoniga jalb etilgan. Institutning 50 professori va 30 talabasi xorijiy OTMlarga malaka oshirish va stajirovkalarga yuborilgan.

AQSH va Rossiya bilan hamkorlikda TOEFL IBT va iTEP, Turkiya bilan TRKI xalqaro til markazlari faoliyati yo'lga qo'yilgani bo'lajak pedagoglarning xalqaro ta'lim maydoniga chiqishi uchun muhim imkoniyatdir. Xalqaro sertifikatga ega professor-o'qituvchilar ulushi 45 foiz, talabalar ulushi esa 25 yetgani mazkur sa'y-harakatlarning amaliy natijasi. Shuningdek, AQSHning SAT tashkiloti bilan hamkorlikda ingliz tilidan xalqaro imtihonlarni tashkil etish yo'lga qo'yilib, institut talabalari va hududdagi yoshlarning xalqaro sertifikat olish imkoniyatlari kengaytirilmoqda. Muassasa hududida zamonaviy talabalar javob beradigan nemis tili o'quv markazi tashkil etilib, uning moddiy-texnik bazasi shakllantirildi.

Ayni vaqtda Termiz davlat pedagogika instituti 60 dan ortiq xorijiy oliy ta'lim muassasasi va xalqaro tashkilot bilan amaldagi memorandum



tuzilgan. Hozir 9 ta ixtisoslik bo'yicha 40 tayanch doktorant, 11 fan doktori va 265 mustaqil izlanuvchi pedagogikaning dolzarb muammolari ustida ilmiy izlanish qilmoqda. Tadqiqotchilarning ilmiy nashrlarini yo'lga qo'yish maqsadida OAK tasarrufiga kirgan "TerDPI ilmiy xabarnomasi" jurnali ochilgan va uni xorijning nufuzli elektron bazalariga indeksatsiyalash ustida ishlayapmiz.

Institutda "Logopediya", "Eksperimental psixologiya", "Inkubatsiya markazi", "Kimyo va atrof-muhit muhofazasi" kabi ilmiy-amaliy laboratoriyalar tashkil qilindi va bugungi kunda ularda "spin off" ochilmoqda. Bu pedagogika institutining oddiy ta'lim muassasasidan ilmiy-pedagogik markazga aylanib borayotganini ko'rsatuvchi muhim belgidir.

Professor-o'qituvchilarning davlat grantlari va xalqaro dasturlar doirasidagi loyihalarda faol

va hamkorlik kelishuvlariga ega. Jumladan, Qozon federal universiteti bilan ikki diplomli 1+1 qo'shma dastur asosida talabalar qabul qilinyotganini, Fransiyaning Yevropa xalqaro universiteti bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgani institut ta'limining xalqaro yo'nalishi tobora kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Rossiyaning Volgograd davlat ijtimoiy pedagogika universiteti bilan ham memorandum imzolaniy, Volgograd shahrida Termiz davlat pedagogika institutining til markazini tashkil etish bo'yicha kelishuvga erishildi.

Institutda xorijlik talabalarni jalb etish va xalqaro ta'lim xizmatlarini targ'ib qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu xorijiy hamkorlar geografiyasini kengaytirish hamda xalqaro ta'lim va ilmiy hamkorlikni amaliy loyihalar bilan boyitishga xizmat qilmoqda.

Ko'p yillik ilmiy va pedagogik faoliyatimiz davomida "ustoz-shogird" an'anasi tayangan holda qator ijobiy natijalarga erishdik. O'ttizga yaqin monografiya, yigirmaga yaqin darslik, o'quv qo'llanma yozildi. Tadqiqot natijalari xorijdagi nufuzli nashrlarda muntazam yoritib kelinmoqda. E'tiborlisi, bu yutuqlarning barchasi nafaqat mahalliy va xalqaro olimlar bilan hamkorlikda, balki iqtidorli yoshlarimiz, doktorant va talabalarimizning faol ishtirokida qo'lga

"Study in Uzbekistan" ta'lim dasturi doirasida Misr, Qirg'iziston va Xitoy kabi davlatlarga xizmat safarlari tashkil etilib, xorijiy oliy ta'lim muassasalari, tashkilotlar hamda ta'lim sohasi vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazildi. Buning natijasida institutga xorijlik talabalarni jalb qilish bo'yicha tizimli ishlar yo'lga qo'yilib, kelgusida ular sonini yanada oshirish bo'yicha amaliy choralar ko'rilyapti.

Bugungi kunda yoshlar siyosatini faqat ta'lim berish bilan chegaralab bo'lmaydi. Ularning qanday muhitda yashashi, qanday qadriyatlar asosida tarbiyalanishi, bo'sh vaqtini nimalarga sarflashi, o'z iste'dodini qayerda va qanday namoyon etishi ham katta ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazaridan, Termiz davlat pedagogika institutida yoshlar bilan ishlashga kompleks yondashilmoqda. Ta'lim, ma'naviyat, ijod, sport, ilm-fan va ijtimoiy faollik — barchasiga yaxlit umumiylikda barkamol pedagog shaxsini shakllantiruvchi yagona tizim sifatida qaralmoqda.

Institutda talabalar uchun yaratilayotgan sharoitlar ana shu yondashuvning amaliy tasdig'idir. Joriy yilda 1500 o'rinni ikkita zamonaviy o'quv binosi — jami 3000 o'rinni o'quv majmuasi hamda har biri 400 o'rinni bo'lgan ikkita yangi talabalar turar joyi foydalanishga topshirildi. Yotoqxonalarda zamonaviy oshxona va maishiy xonalar, kutubxona, tikuvchilik xonasi, shaxmat va shaxsha xonalari, ma'naviyat xonasi, fitness zal ham tashkil etildi. Bu talabalarining o'z iste'dodini rivojlantirishga mo'ljallangan yaxlit muhitdir.

Oliyogha ma'naviy-ma'rifiy, intellektual, ijodiy va sport yo'nalishlarida tashkil etilayotgan loyihalar ham natijadorligi bilan e'tiborga loyiq. "Zakovat", "Ma'rifat maydoni", "Talabalar teatr studiyalari", "Quvnoqlar va zukkolar" kabi tanlovlarining institut bosqichlari "Rektor kubogi" doirasida o'tkazilib, talabalarining bilim va tafakkurini charxlash, ijodiy salohiyatini yuksaltirish, sahna madaniyati, jamoaviy ishlash va liderlik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Albatta, intellektual salohiyat yuqoriligi o'z samarasini bermoqda. Jumladan, 2 talabamiz Prezident stipendiyasi sohibi, 7 nafari esa Navoiy nomli davlat stipendianti bo'lishga erishgan. Boshqa qator nomdor davlat stipendiyasi sohiblari ham talay. So'nggi yillarda talabalarimiz tomonidan xalqaro fan olimpiadalarida 19 ta medal qo'lga kiritildi. Shulardan 1 tasi oltin, 3 tasi kumush va 15 tasi esa bronza.

Muxtasar aytganda, biz allaqachon ta'lim millatning ertangi qiyofasini belgilovchi strategik kuch ekanini anglab yetdik. Ayniqsa, so'nggi o'n yillikda bu qarash amaliy mazmun kasb etib, ustozning maqomi, yoshlarning bilim olish imkoniyatlari, ilm-fan va oliy ta'limning jamiyatdagi o'rni yangi bosqichga ko'tarildi. Bu jarayonning eng muhim natijasi, ehtimol, bunyod etilgan binolar yoki joriy etilgan tizimlardan ham ko'ra chuqurroq, ya'ni ta'limning eng muhim strategik qudrat ekaniga bo'lgan ishonchning mustahkamlanganidir.

Endi oldimizda shunchaki mavjud natijalarni saqlab qolish emas, ularni yangi bosqichga olib chiqish, dunyo miqyosidagi bilim va tajribani milliy taraqqiyot ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish vazifasi turibdi. Ushbu ulug'vor vazifa pedagogika oliyoghlari zimmasiga yanada ulkan mas'uliyat yuklaydi. Termiz davlat pedagogika instituti uchun ham bugungi yutuqlar muayyan marraning yakuni emas, aksincha, kelgusi izlanishlar uchun boshlang'ich nuqtadir.



5

2026-yil 2-sentabr, 181-son



Yuksalish pallasi

## ERTAMIZ EGALARI KAMOLOTIDA MUHIM OMIL

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi takomillashtirilgan o'quv dasturini taqdim etdi. Ta'lim mazmunini yangilashda mazkur dastur muhim qadam sanaladi. Zero, undan ko'zlangan maqsad o'quvchilarni davr talabiga mos, raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan, bilimli va amaliy ko'nikmalarga ega shaxs sifatida tarbiyalash. Buning uchun dasturda barcha sinf o'quvchilariga mo'ljallangan aniq maqsadlar belgilanib, yuqori xalqaro standartlarga moslashtirilgan. Milliy o'quv dasturi sinflar va ta'lim bosqichlari o'rtasidagi uzviylikni, fanlararo bog'liqlikni kuchaytirib, asosiy e'tiborni bilimlarni real hayotda amaliy qo'llashga qaratadi.



O'zbekiston ta'lim tizimida sifatini oshirishga qaratilgan ushbu keng ko'lami o'quv dasturi islohoti yaqinda boshlangan, umumiy qiymati 220 million AQSH dollarini tashkil etuvchi SMART-ED loyihasining ustuvor yo'nalishlaridan. Dastur ustida qariyb ikki yil 150 ga yaqin milliy va 30 nafar xalqaro mutaxassis ishladi. Jarayonga bir necha xalqaro tashkilot, xususan, UNICEF va Cambridge University Press & Assessment yaqindan yordam berdi. Respublika ta'lim markazida barcha fanlar bo'yicha eng malakali mutaxassislar, amaliyotchi o'qituvchilar, olimlar va xalqaro ekspertlardan iborat ishchi guruhlari tashkil etildi.

260 dan ortiq ishchi uchrashuv va maslahatlashuvlar o'tkazilishi natijasida boshlang'ich ta'lim bosqichi uchun 17 ta, tayanch o'rta ta'lim bosqichiga 25 ta hamda o'rta ta'lim bosqichi uchun 21 ta fanning o'quv dasturlari ramkalari loyihasi ishlab chiqildi. Ilk bor barcha fanlar bo'yicha milliy ishchi guruhlar xalqaro ekspertlar bilan tizimli va uzluksiz hamkorlik qildi. Soha yetakchilarining aytishicha, avval ham o'quv dasturlarini

hamkorlardan biri sifatida ishtirok etmoqda. Nazarimizda, mazkur jarayonning eng muhim jihatlardan biri milliy o'quv dasturi mutaxassislari va o'qituvchilarning xalqaro ekspertlar bilan yaqindan hamkorlik qilayotganidir. Bunday hamkorlik o'quv dasturida mahalliy tajriba bilan xalqaro ilg'or tajriba hamda dalillarga asoslangan yondashuvlarning eng yaxshi jihatlarni uyg'unlashtirish imkonini beradi. Ishonamizki, takomillashtirilgan milliy o'quv dasturi O'zbekistondagi o'quvchilarning hayotga puxta tayyorlanishi, zarur bilim va ko'nikmalarni egallashi hamda kelgusidagi ta'lim va ish faoliyatida muvaffaqiyat qozonishi uchun xizmat qiladi.

Takomillashtirilgan milliy o'quv dasturi to'liq amaliyotga joriy etilsa, qariyb 8 million o'quvchini qamrab olishi kutilmoqda. Dastur o'quvchilarning kognitiv, ijtimoiy va emosional rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi. Ularini jadal o'zgarib borayotgan dunyoda mustaqil hayot kechirish hamda zamonaviy mehnat bozorining tobora



UNIVERSITY OF  
CAMBRIDGE

— Cambridge ushbu dasturni takomillashtirishda xalqaro hamkorlardan biri sifatida ishtirok etmoqda. Nazarimizda, mazkur jarayonning eng muhim jihatlardan biri milliy o'quv dasturi mutaxassislari va o'qituvchilarning xalqaro ekspertlar bilan yaqindan hamkorlik qilayotganidir.

takomillashtirish jarayoniga xalqaro ekspertlar jalb etilgan. Biroq bunday puxta va tizimli hamkorlik barcha fan va sinflarni to'liq qamrab olmag'an.

UNICEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi ta'lim sektori rahbari Alberto Biankoli "Takomillashtirilgan milliy o'quv dasturi O'zbekiston ta'lim tizimidagi tub islohotlarni ifodalaydi. U har bir o'quvchining yuqori ta'lim natijalariga erishishini ko'zda tutib, hayot, mehnat faoliyati va faol fuqarolik uchun zarur kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi", deya loyihani yuqori baholadi.

Cambridge University Press & Assessment tashkilotining O'quv dasturlari departamenti direktori sifatida faoliyat yuritayotgan Abigail Barnett esa milliy o'quv dasturini jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish jarayoni haqida bunday dedi:

— Cambridge ushbu dasturni takomillashtirishda xalqaro

ortib borayotgan talablariga tayyorlashga xizmat qiladi.

Yangilanyotgan milliy o'quv dasturida shaxsiy, ijtimoiy, fuqarolik, mahalliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan bir qatorda tanqidiy hamda kreativ fikrlash, hamkorlikda ishlash, kommunikativlik, raqamli savodxonlik, ekologik va psixologik savodxonlik hamda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Iqlim o'zgarishi, yashil ta'lim, salomatlik va farovonlik kabi fanlararo kesishuvchi mavzular ham barcha fanlar mazmuniga singdirildi.

Muhokamalar 15 kun davom etadi, vaqt deyarli yakunlanayapti. O'qituvchilar, ota-onalar va barcha manfaatdor shaxslar maxsus platforma orqali o'z taklif va mulohazalarini bildirib ulguradi deya umid qilamiz.

Munojat MO'MINOVA,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Dildagi gaplar

Kamtarona mehnatlarimga berilgan bunday oliy baho va yuksak e'tibor qalbimda cheksiz minnatdorlik tuyg'usini uyg'otish bilan birga Uchinchi Renessans poydevorini qo'yishda ilm-fan va ta'lim sohasi vakillarni zimmasida qanchalik katta mas'uliyat turganini yanada chuqurroq his ettirdi.

Bugun global iqlim o'zgarishi oqibatida tuproq degradatsiyasi jahon miqyosidagi eng dolzarb muammolardan biriga aylandi. Ma'lumotlarga ko'ra, dunyodagi qishloq xo'jaligiga yaroqli yerning 33 foizi degradatsiyaga uchragan bo'lib, har yili suv va shamol eroziyasi, sho'rlanish, ozuqa

elementlari kamayishi natijasida 12 million gektar unumdor yer foydalanishdan chiqib ketmoqda.

Jamoamizning barcha fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlari aynan ana shu global xavfga qarshi kurashish, xususan, degradatsiyaga uchragan

sug'oriladigan, lalmikor va yaylov yerlarni muhofaza qilish, unumdorligini tiklash, agrokimyo muammolarini hal etish hamda uglerodli dehqonchilik asoslarini yaratishga qaratilgan.

Ko'p yillik ilmiy va pedagogik faoliyatimiz davomida "ustoz-shogird" an'anasi tayangan holda qator ijobiy natijalarga erishdik. O'ttizga yaqin monografiya, yigirmaga yaqin darslik, o'quv qo'llanma yozildi. Tadqiqot natijalari xorijdagi nufuzli nashrlarda muntazam yoritib kelinmoqda. E'tiborlisi, bu yutuqlarning barchasi nafaqat mahalliy va xalqaro olimlar bilan hamkorlikda, balki iqtidorli yoshlarimiz, doktorant va talabalarimizning faol ishtirokida qo'lga

kiritildi. Universitetimizda tashkil etilgan zamonaviy laboratoriyalar va yosh olimlar tajriba maydonlari fan, ta'lim va ishlash chiqarish integratsiyasini ta'minlashda muhim platforma bo'lib xizmat qilmoqda.

Prezidentimizning ilm-fan va ta'lim sohasini rivojlantirish, xususan, xotin-qizlarning intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi keng ko'lami islohotlari biz — olimlar uchun beqiyos ilhom manbaidir. Bir paytlar talabalar o'qish davriani paxta dalalarida o'tkazgan bo'lsa, bugun ular zamonaviy auditoriya va mukammal laboratoriyalarda jahon andozalari darajasida tahsil olmoqda.



**Lazizaxon G'AFUROVA,**  
O'zbekiston Milliy  
universiteti professori,  
"Do'stlik" ordeni sohibi

Oldimizda hali bajarilishi lozim bo'lgan juda muhim vazifalar turibdi. Iqlim o'zgarishi sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qurg'oqchil hududlarda issiqxona gazlari chiqindisini cheklash, uglerod muvozanatini baholash orqali karbon poligonlari va karbon fermalarini tashkil etish asosiy yo'nalishlarimizdan.

Shuningdek, sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarni tuproqshunoslikka keng joriy etish va samarali dehqonchilik usullarini amaliyotga tatbiq qilish bo'yicha izlanishlarimizni yanada jadallashtiramiz. Mustaqilligimizning qutlug' bayrami arafasida berilgan bu yuksak mukofot zimmamizdagi mas'uliyatni yanada oshiradi. Men va shogirdlarim bor bilim va tajribamizni ona zaminimiz unumdorligini asrash, yurtimiz agrar fanini dunyo miqyosida munosib targ'ib qilish va yangi O'zbekistonning mustahkam kelajagini barpo etish yo'lida safarbar etamiz.

